



Xalq so'zi

O'zbekiston —
kelajagi
buyuk
davlat

2023-YIL — INSONGA E'TIBOR VA SIFATLI TA'LIM YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan

WWW.XS.UZ

E-mail: Info@xs.uz

2023-yil 22-noyabr, № 248 (8591)

Chorshanba

Saytimizga o'tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling.



KO'P QIRRALI HAMKORLIKNI KENGAYTIRISH REJALARI MUHOKAMA QILINDI

21-noyabr kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Koreya Respublikasi Prezidenti Yun Sok Yol bilan telefon orqali muloqoti bo'lib o'tdi.

O'zbekiston bilan Janubiy Koreya o'rtasidagi do'stlik va alohida strategik sheriklik munosabatlarini yanada rivojlantirish hamda ko'p qirrali hamkorlikni kengaytirishning dolzarb masalalari ko'rib chiqildi.

Ikki mamlakat yetakchilarining joriy yil sentabr oyida Nyu-York shahrida BMT Bosh Assambleyasi yig'ilishi doirasida o'tgan uchrashuvda erishilgan kelishuvlarni amalga oshirishga alohida e'tibor qaratildi.

Turli hamkorlik formatlarida faol

muloqot va almashinuvlarni davom ettirish muhimligi qayd etildi.

Yetakchi kompaniyalarning koope-ratsiya loyihalarini jadallastirish hamda Janubiy Koreyaning bank-moliya institutlari bilan yangi sheriklik dasturini shakllantirishdan manfaatdorlik bildirildi.

Qo'shma Hukumatlararo qo'mitaning navbatdagi yig'ilishini joriy yil oxirigacha o'tkazishga kelishib olindi.

O'zbekiston Respublikasi va Koreya Respublikasi Prezidentlari bo'lajak oliy darajadagi tadbirlar rejasini ham ko'rib chiqdilar.

YER RESURSLARIDAN SAMARALI FOYDALANISH BO'YICHA VAZIFALAR BELGILANDI

Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida 21-noyabr kuni yer resurslaridan oqilona foydalanish, yer hisobini yuritish hamda kadastr xizmatlarining sifatini yaxshilash masalalari yuzasidan videoselektor yig'ilishi o'tkazildi.

Hududlardagi iqtisodiy o'sish, oziq-ovqat xavfsizligi, ish o'rinlari va investitsiya oqimi, avvalo, yerga bog'liq. Oxirgi uch yilda raqamlashtirish hisobiga 40 million gektar yoki jami yerlarning 90 foizi kadastrda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan.

Shu bilan birga, 44 million 800 ming gektar yer maydoni, 8 million 300 mingta bino va inshootning mulk sifatidagi bozor bahosi hisoblanmagan. Hozirda mavjud bino va inshootlarning shartli kadastr qiymati 70 milliard dollarni tashkil qiladi. Aslida, ularning haqiqiy bozor bahosi bundan kamida 4-5 barobar ko'p. Bunga yerning bozor qiymati ham qo'shilsa, katta "iqtisodiy aktiv" bo'ladi.

Sohada zamonaviy aerofotokamera va dronlar qo'llanayotgani natijasida ko'p zaxiralar aniqlanmoqda. Masalan, Qarshi tumanida ekin yerlari 45 ming gektar deb ko'rsatib kelinayotgan bo'lsa-da, hisobotda yavlov bo'lib turgan 5 ming 100 gektar maydon ham aslida sug'oriladigan yer ekanligi aniqlandi. Bu budjetga qancha tushum, qancha ish o'rni va daromad yo'qotilyapti, degani.

Umuman olganda, qishloq xo'jaligida 286 ming gektar yerning huquq belgilovchi hujjatlari to'liq emas. Doimiy foydalanish uchun ajratilgan 460 ming gektar yerning huquqiy maqomi aniq emas. 159 ming gektar yerning hujjatdagi va amaldagi maydoni bir-biridan farq qiladi.

Oqibatda, jami 900 ming gektardan ziyod qishloq xo'jaligi yerlari kadastr ro'yxatidan o'tmasdan turibdi. Kadastrni yo'qligi sababli ularni takroriy ekinlar uchun rasman ikkilamchi ijaraga berish imkoni bo'lmayapti. Bular tufayli kamida 300 ming ish o'rni, takroriy ekindan olinayotgan mahsulot hamda norasmiy ijaraning hisobi yuritilmayapti.

Shu bois bunday yerlar samaradorligini o'rganish vazifasi

(Davomi 2-betda).



METROPOLITENDA XIZMATLAR SIFATINI OSHIRISH BO'YICHA TAKLIFLAR TAQDIMOT QILINDI

Prezident Shavkat Mirziyoyev 21-noyabr kuni Toshkent metropolitenida xizmatlar sifatini oshirish chora-tadbirlari bo'yicha taqdimot bilan tanishdi.

So'nggi yillarda metropoliten qamrovini kengaytirish maqsadida qo'shimcha 32 kilometr yo'l qurildi, 21 ta yangi stansiya ishga tushirildi. 15 ta zamonaviy metro poyezdlari olib kelindi. Yangi yo'nalishlar poytaxtimizning Yashnobod, Mirobod, Sergeli, Yangihayot va Yunusobod tumanlaridan o'tib, aholining kundalik qatnoviga qulaylik yaratdi.

Bugungi kunda metropolitenidan foydalanadigan yo'lovchilar soni 5 barobar oshib, kunlik qatnov 720 mingtaga yetdi. Kunning tig'iz paytida poyezdlar kelish vaqti avvalgi 5 — 7 daqiqadan 2 daqiqagacha qisqardi

Yig'ilishda transport va qurilish sohasi mutasaddilari metropolitenning bugungi holati hamda kelgusi rejalar yuzasidan axborot berdi.

Davlatimiz rahbari metro xizmatlari sifatini oshirish, harakat qulayligi va xavfsizligini kuchaytirish bo'yicha ko'rsatmalar berdi. Yana yangi vagonlar olib kelib, foydalanish muddati o'tganlarini yangilash, ikki daqiqali intervalni ta'minlash zarurligi ta'kidlandi.

Toshkent metropolitenini transformatsiya qilib, daromadini oshirish bo'yicha takliflar ko'rib chiqildi.

O'ZA.

MANZILINGIZ YAQIN, YO'LINGIZ BEXATAR BO'LSIN!

O'tgan hafta yakunida Prezidentimiz Toshkent shahrining Mirzo Ulug'bek va Yashnobod tumanlariga tashrif buyurib, sport va transport infratuzilmasi obyektlarining qurilishini ko'zdan kechirdi. Davlatimiz rahbariga namoyish etilgan loyihalar ichida, ayniqsa, Yangi O'zbekiston ko'chasi va "4R12" magistral yo'li kesishuvida quriladigan yo'lo'tkazgich loyihasi ko'pchilikda qiziqish uyg'otdi.

Infratuzilma



Bu bejiz emas, albatta. Keyingi yillarda mamlakatimizning yirik shaharlari, ayniqsa, poytaxtda transport harakatini tartibga solish masalasi dolzarb bo'lib turibdi. Yo'l harakati xavfsizligi muammolarini o'rganish markazi mutasaddilari ma'lumotlariga qaraganda, oxirgi bir yilda mamlakatimizda avtotransport vositalari soni ikki baravarga oshgan. 2021-yilda poytaxtimizda 45 ming yangi avtomobil ro'yxatga olingan bo'lsa, 2022-yilda bu



ko'rsatkich 76 mingtani tashkil etgan. Joriy yilda bu raqam yanada oshishi taxmin qilinmoqda. Faqatgina Toshkentning o'zida ro'yxatga olingan jami avtomobillar qariyb milliontaga yaqinlashib qoldi.

Bundan tashqari, viloyatlardan poytaxtimizga har kun kirib chiqadigan avtomobillar soni 160 mingdan 300 minggacha yetmoqda. Ulardan 7 mingdan ortiqrog'i yuk mashinalari hisoblanadi. Mana shu

omillar va Bo'stonliq hamda Parkent tumanlariga borayotgan sayyohlar soni avvalgi yillardagiga qaraganda bir necha barobar ko'payishi tufayli Yangi O'zbekiston ko'chasi va "4R12" magistral yo'lida ham tirbandliklar yuzaga kela boshladi.

Shundan kelib chiqib, bu yo'llar kesishmasida transport bog'lamasi qurish rejalashtirilgan. Loyihaga ko'ra, bu yerda 1 ta ko'pri, 3 ta tunnel, 4 tadan aylanma va qo'shimcha yo'llar barpo etiladi.

Bularning evaziga chorraha birona ham svetoforsiz — "yashil chorraha" bo'ladi. Bu qulaylik natijasida haydovchi va yo'lovchilarning vaqti hozirgiga nisbatan 20 — 30 daqiqaga tejaladi, harakat xavfsizligi oshadi. Mazkur kesishma kelajakda Yangi Toshkent shahriga olib boradigan asosiy yo'l bo'lishini inobatga olsak, uning ahamiyati yanada oshadi.



Muloqot

O'ZBEKISTON BUTUN DUNYO MUSULMONLARI UCHUN KATTA AHAMIYATGA EGA

Oliy Majlis Senati Raisi Tanzila Norboyeva Musulmon oqsoqollar kengashi bosh kotibi Muhammad Abdusalom bilan muzokara o'tkazdi.

Musulmon oqsoqollar kengashi bilan keng ko'lami aloqalarni mustahkamlash, diniy bag'rikenglik hamda an'anaviy islom qadriyatlarini mustahkamlash borasida hamkorlikni kengaytirish masalalari atroflicha muhokama qilindi.

O'z navbatida, mamlakatimizda Prezidentimiz boshchiligidagi ma'rifat va diniy bag'rikenglik masalalariga alohida e'tibor berilayotgani, so'nggi yetti yilda soha bo'yicha 50 dan ortiq qonun hujjatlari qabul qilangani aytib o'tildi. Ayni chog'da O'zbekistonning millatlararo va konfessiyalararo totuvlikni o'rnatish siyosati Inson huquqlari umumijahon deklaratsiyasi va boshqa xalqaro huquqiy-

me'yoriy hujjatlarga to'la mos kelishi qayd etildi.

Ma'lumot o'rinda aytish joizki, yurtimizda turli millat va din vakillari o'z salohiyatini to'laqonli yuzaga chiqarishi hamda ularning huquq va manfaatlarini himoyalash uchun konstitutsiyaviy kafolat ta'minlangan. Shu bois ham bugun O'zbekiston musulmonlari idorasi, uning hududlardagi vakilliklari, 3 ta oliy va 10 ta o'rta maxsus ta'lim muassasasi hamda 16 ta konfessiyaga tegishli 2300 dan ortiq diniy tashkilotlar mamlakatimizda emin-erkin faoliyat yuritib kelmoqda.

Suhbat davomida Muhammad Abdusalom O'zbekiston Prezidentining BMT Bosh As-

sambleyasining "Ma'rifat va diniy bag'rikenglik" maxsus rezolyutsiyasini qabul qilish tashabbusi xalqaro maydonda ham e'tirof etilayotgani, hujjat shu yo'nalishdagi sa'y-harakatlarni birlashtirishga turki berganligini alohida ta'kidladi.

O'zbekistonning butun dunyo musulmonlari uchun juda katta ahamiyatga ega ekani, ushbu zaminda yetishib chiqqan olimlar nafaqat musulmon olami, balki butun dunyo uchun katta ilmiy meros qoldirgani ham urg'ulandi.

Uchrashuv yakunida o'zaro aloqalarni yanada kengaytirish, delegatsiyalar tashriflarini amalga oshirish hamda birgalikda turli ilmiy va amaliy tadbirlarni tashkil etishga kelishib olindi.

"Xalq so'zi".

VAKILLARIMIZ SKANDINAVIYA DAVLATLARIDAGI OZIQ-OVQAT YARMARKASIDA QATNASHDI

Yurtimiz mahsulotlarini Yevropaning 20 ga yaqin davlatlariga eksport qilish bo'yicha dastlabki kelishuvlarga erishildi.

Ko'rgazma

15-16-noyabr kunlari Shvetsiyaning Malmjo shahrida bo'lib o'tgan Skandinaviyadagi eng yirik organik mahsulotlar yarmarkasi — "Nordic Organic Food Fair" ko'rgazmasida O'zbekiston vakillari ham qatnashdi.

Elchixonada tomonidan uyushtirilgan milliy bo'lmada O'zbekistonning "Global Export Company" kompaniyasi mam-

lakatimiz zaminida yetishtirilgan organik quritilgan mevalar hamda dukkakli mahsulotlarni namoyish qildi.

"Nordic Organic Food Fair" har yili o'tkazib kelinadigan yarmarka bo'lib, organik sertifikatiga ega rang-barang oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar uning peshtaxtalaridan joy oladi. Ushbu xalqaro tadbir chog'ida

"Global Export Company" MCHJ Yevropaning yigirmaga yaqin mamlakatlari, shu jumladan, Shvetsiya, Norvegiya va Daniya kompaniyalari bilan o'zbek mahsulotlari eksporti bo'yicha dastlabki kelishuvlarga erishdi.

Shuningdek, mamlakatimiz elchixonasi va "Nordic Organic Food Fair" tashkilotchilari o'rtasida ushbu ko'rgazmaning 2024-yil 9-10-oktabr kunlari Stokgolmda o'tkaziladigan navbatdagi tadbirida ham O'zbekiston vakillarining ishtirok etishi yuzasidan kelishuvga erishildi.

"Dunyo" AA. Stokgolm

Oliy Majlis Qonunchilik palatasida

IQTISODIY TARAQQIYOT VA XALQIMIZ FAROVONLIGI KAFOLATI

Kecha Oliy Majlis Qonunchilik palatasining navbatdagi majlisi bo'lib o'tdi. Unda "2024-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to'g'risida"gi, shuningdek, "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qonun loyihalari ikkinchi o'qishda batafsil ko'rib chiqildi. Deputatlar qonun loyihalari muhokamalarida asosiy e'tiborni ushbu hujjatlarda mamlakat iqtisodiy barqarorligi, aholi farovonligi, yosh avlod kamoloti, onalik va bolalik ijtimoiy himoyasi, qolaversa, atrof-muhit muhofazasi qay darajada aks etganiga oid masalalarga qaratdilar.

Davlat budjetida daromadlarni oshirishga alohida e'tibor qaratildi

"2024-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to'g'risida"gi qonun loyihasi muhokamasida ta'kidlanganidek, Davlat budjeti to'g'risidagi qonun loyihasining ko'rib chiqilishi oldingi yillardagidan tubdan farq qildi. Xususan, mas'ul qo'mita tomonidan o'tkazilgan yig'ilishlarda, siyosiy partiyalarning fraksiyalaridagi muhokamalarda deputatlar faol ishtirok etdi. Hukumat idoralari va vazirliklar ham muhokamalarga mas'uliyat bilan yondashdi. Yig'ilishlarda deputatlar tomonidan 100 dan ortiq savollar berilib, tegishli vazirlik va idoralar tomonidan batafsil javoblar olindi.

Majlisda Davlat budjetining va davlat maqsadli jamg'armalari budjetlarining daromadlari va xarajatlari,

mahalliy budjetlar va davlat maqsadli jamg'armalariga oid loyihada ko'zda tutilgan tadbirlar, ularni moliyalashtirish manbalariga doir ma'lumotlar chuqur tahlil qilinganligiga alohida e'tibor qaratildi.

Mas'ul qo'mita tomonidan qonun loyihasini ikkinchi o'qishga tayyorlashda uning tegishli modallarda aks ettirilgan normalar Prezident Farmon va qarorlari hamda Hukumat qarorlari bilan uyg'unligi va asoslantirilganligi o'rganilgan. Shuningdek, "O'zbekiston — 2030" strategiyasida ko'zda tutilgan maqsad va vazifalarni amalga oshirishda 2024-yilda belgilangan tadbirlarni moliyalashtirish masalalariga aniqlik kiritilgan.



YER RESURSLARIDAN SAMARALI FOYDALANISH BO'YICHA VAZIFALAR BELGILANDI

(Davomi. Boshlanishi 1-betda).

Yo'l xo'jaligida muayyan ichki yo'llar va unga tutash yerlarda hujjat yo'q. Masalan, Qoraqalpog'iston va Xorazmda ichki yo'llar chegarasini belgilash vaqtida auktsionga chiqarsa bo'ladigan 2 ming 700 dan ziyod bo'sh yer uchastkalari aniqlangan. Shu bois kelgusi yil "Tashabbusli budget" va "Mening yo'lim" loyihalari doirasida ichki yo'llarning kadastr hujjatini tayyorlash ham nazarda tutiladi.

Yig'ilishda yerlardan samarali foydalanish masalasi atroflicha tahlil qilindi.

Qanchalik qiyin bo'lmasin, oxirgi besh yilda qishloq xo'jaligidan 42,5 ming gektar qisqartirilib, aholi punktlari va sanoat yerlari toifasiga o'tkazildi. Lekin viloyat, tuman va shahar hokimlari ulardan samarali foydalana olmayapti. Xususan, 100 ta tumanda toifasi o'zgargan 17,5 ming gektar yer na tadbirkorga berilgan, na auktsionga chiqarilgan. Sanoat zonalarida ham bo'sh yerlar bor. Oqibatda milliardlab so'm budget tushumi yo'qotilgan.

Hokimlarga bu boradagi ishlarni jadallashtirish bo'yicha qat'iy ko'rsatmalar berildi.

Kadastr sohasi uchun kadrlar

tayyorlash, ularning malakasini oshirish ham muhim vazifalardan. Bugungi kunda bu boradagi o'qitish sifati talab darajasida emas. Ayrim fakultet va kafedralar nomiga ochildan, o'quv dasturlari zamondan orqada qolgan.

Shu bois ularda zamonaviy laboratoriyalar tashkil qilish, yangi o'quv adabiyotlari va xorijdan malakali mutaxassislar olib kelish zarurligi ta'kidlandi.

Yig'ilish yakunida vazirlik, hokimlik va idoralardagi ijro intizomi holatiga to'xtalib o'tildi.

— Yangi O'zbekistonni barpo etish yo'lida juda katta islohotlarni amalga oshiryapmiz. Hech bir soha e'tibordan chetda qolayotgani yo'q. Lekin islohotlar "qog'ozda" qolib ketmasligi kerak. Vazirlik va tarmoq rahbarlari, hokimlar joylarda ularning ijrosini so'zsiz ta'minlashi shart, — dedi Prezident.

Ayrim rahbarlar raqam ortidan quvib, sifat, samaradorlik va talabchanlikni susaytirgani ko'rsatib o'tildi. Ijro intizomini ta'minlash, barcha dastur, "Yo'l xaritasi" va loyihalarni o'z muddatida bajarish lozimligi qat'iy ta'kidlandi.

Yig'ilishda muhokama qilingan masalalar yuzasidan mutasaddilarning axborotlari tinglandi.

O'ZA.

ALOQALARIMIZNING BUGUNGI HOLATI VA ISTIQBOLLARI KO'RIB CHIQILDI

Kecha Oliy Majlis Senati Raisi Tanzila Norboyeva Turkmanistonning O'zbekistondagi Favqulodda va muxtor elchisi Shadurdi Meredovni qabul qildi.

Uchrashuv



Uchrashuvda tarixi, an'analari, qadriyatlari mushtarak O'zbekiston va Turkmaniston hamkorligining turli yo'nalishlari, jumladan, savdo-iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy-gumanitar va parlamentlararo aloqalarning bugungi holati va istiqbollari muhokama qilindi. Davlatlararo munosabatlarda parlament diplomatiyasining o'rni muhim ekanidan kelib chiqib, parlamentlararo hamkorlikni yanada rivojlantirish masalalariga asosiy e'tibor qaratildi. Xususan, ikki mamlakat o'rtasida erishilgan barcha darajadagi kelishuvlarning parlament nazorati doirasida ijrosini ta'minlashga ko'maklashish, qonun ijodkorligi yo'nalishida qo'mitalararo o'zaro tajriba

almashish, yosh parlamentariylar o'rtasida muloqotni yo'lga qo'yish yuzasidan fikr almashildi.

Ma'lumki, ikki mamlakat aloqalarida iqtisodiy hamkorlik muhim o'rin tutadi va 2022-yilda o'zaro tovar ayirboshlash hajmi qariyb bir milliard dollarni tashkil qildi. Shunga qaramasdan ikkala tomonda ham bu boradagi ko'rsatkichni oshirish uchun yetarli imkoniyat va salohiyat mavjudligi ta'kidlandi. Buning uchun Savdo-iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy va madaniy hamkorlik bo'yicha qo'shma komissiya faoliyatidan samarali foydalanish hamda hududlararo hamkorlikni rivojlantirish lozim.

Madaniy-gumanitar sheriklik doirasida ikki mamlakatda ham madaniyat kunlari tashkil etilmoqda. Uchrashuvda ikki xalqning madaniy va ma'naviy yaqinlashuviga imkoniyat yaratadigan, davlatlararo gumanitar munosabatlarni yangi bosqichga olib chiqishga xizmat qiladigan loyihalarni yo'lga qo'yish maqsadga muvofiq ekanini urg'ulandi.

Shuningdek, gender tenglik masalalarida faol hamkorlik olib borish, mamlakatlar o'rtasida sayyohlik yo'nalishlarini rivojlantirish masalalariga to'xtalib o'tildi.

"Xalq so'zi"

JAMOAT TRANSPORTIDAN AHOLI MAMNUNMI?

Bugungi taraqqiyot va rivojlanish davrida aholiga avtotransport xizmati ko'rsatishni yaxshilash, jamoat transporti yo'nalishlari tarmog'ini kengaytirish va harakat tarkibini zamonaviy shakliga o'tkazish, yo'lovchi tashish sifati yaxshilash dolzarb masala hisoblanadi.

Eshituv

Oliy Majlis Senati tashabbusi bilan "Yuksalish" umummilliy harakati hamkorligida tashkil etilgan jamoatchilik eshituvida ayni shu masala tahlildan o'tkazildi.

Tadbirida dastlab Transport vazirligi mas'ul xodimlari sohada amalga oshirilgan ishlar holati bilan ishtirokchilarni tanishtirdi.

Vazirlik ma'lumotiga ko'ra internet jahon axborot tarmog'ida Toshkent shahrida avtobuslarning harakat nuqtasini kuzatish maqsadida "Toshkent transporti" mobil ilovasi ishga tushirilgan. Ayni chog'da aholiga qulaylik yaratish maqsadida jamoat transportlarining oraliq intervallari qisqartirilib, zamonaviy yangi metro bekatlari foydalanishga topshirilgan. Avtobuslar harakati uchun alohida yo'laklar tashkil etilgan hamda avtomatlashtirilgan to'lov tizimlari joriy qilingan.

O'tgan vaqt davomida xalqaro va mahalliy havo yo'nalishlarida yo'lovchi va yuklarni tashish sertifikatiga ega bo'lgan "Qanot sharq", "Panorama airways", "Humo air", "Centrum air", "Silk avia", "Asia Union Airlines" va "Tashkent air" kabi aviakompaniyalar tashkil etilgan hamda ular xalqimizga xizmat ko'rsatishni boshlagan.

Munozaralar jarayonida sohada amalga oshirilgan ijobiy ishlar bilan birga, o'z yechimini kutayotgan qator muammolar borligi ham ayte'o'tildi. Jumladan, O'zbekiston iste'molchilar huquqlarini himoya qilish jamiyatlari federatsiyasi ma'lumotlariga ko'ra transport xizmatlari ko'rsatish bilan bog'liq kamchiliklar bo'yicha aholi tomonidan 252 ta murojaat kelib tushgan. Qoraqalpog'iston Respublikasi, Farg'ona, Namangan, Jizzax, Sirdaryo, Buxoro, Navoiy va Toshkent viloyatlari hududlarida jamoat transportlarida avtomatlashtirilgan to'lov tizimlari joriy etilmagan.

Qolaversa, yo'lovchi tashuvchi jamoat transportlari, avtoshohbekatlarda nogironligi bo'lgan shaxslar uchun avtotransport vositalariga chiqish uchun maxsus moslamalar o'rnatilmaganligi, temir yo'l xizmatlari ko'rsatishda ham muayyan kamchiliklar mavjudligi jamoatchilik va aholining haqli e'tirozlariga sabab bo'lmoqda.

Muhokamalar jarayonida Senat a'zolari, deputatlar hamda jamoatchilik vakillari tomonidan aholiga ko'rsatilayotgan transport xizmatlarini yanada takomillashtirish uchun zarur choralar ko'rilishi yuzasidan aniq taklif va tavsiyalar berildi.

"Xalq so'zi".

IQTISODIY TARAQQIYOT VA XALQIMIZ FAROVONLIGI KAFOLATI



Shuningdek, qonun loyihasini ikkinchi o'qishga tayyorlash jarayonida Hisob palatasining bergan xulosalariga ham ahamiyat qaratilgan. Ushbu xulosalar yuzasidan deputatlar tomonidan bildirilgan fikr va mulohazalar hisobga olingan holda asoslantirilgan takliflarni Soliq va Byudjet kodekslarida aks ettirish masalasi o'rganib chiqilgan.

Byudjet mablag'larini rejalashtirish, ulardan foydalanish natijadorligini oshirish hamda byudjetlararo munosabatlarni takomillashtirishga oid deputatlar tomonidan bildirilgan takliflar yuzasidan sog'liqni saqlash, ta'lim, qishloq xo'jaligi, madaniyat va boshqa sohalar bo'yicha tegishli vazirlik va idoralar mas'ullari ishtirokida muhokamalar o'tkazilgan. Har bir deputatning bergan savollari yoki ko'targan masalalariga oydinlik kiritilgan.

Deputatlar muhokamalarda byudjet daromadlarini oshirishga alohida e'tibor qaratildi. Yashirin iqtisodiy faoliyatni mumkin qadar qisqartirish, tadbirkorlarga teng imkoniyatlar yaratish maqsadida raqobat

aks etganligi deputatlar tomonidan e'tirof qilindi.

Xususan, yuk ko'tarish quvvati 10 tonnadan yuqori bo'lgan avtotransport vositalari uchun tabaqalashtirilgan yig'im stavkalarini belgilash ko'zda tutilgan. Bunda yuk ko'tarish quvvatidan kelib chiqib, bazaviy hisoblash miqdorining 5 baravaridan 10 baravarigacha darajada yig'im undirilishi nazarda tutilmoqda.

Deputatlar tomonidan birinchi o'qishda aksiz solig'i bo'yicha berilgan taklif manfaaddor vazirlik va idoralar bilan birgalikda chuqur o'rganilib, joriy qilinishi nazarda tutilayotgan aksiz solig'ining mahsulot narxiga va tadbirkorlik subyektlari faoliyatining moliyaviy natijalariga ta'sirini inobatga olgan holda energetik ichimliklarning 1 litri uchun 2000 so'm miqdorida aksiz solig'i belgilash taklif etilmoqda.

Shuningdek, sog'liqni saqlash tizimi bo'yicha aholining tibbiy xizmatlarga bo'lgan talabi yuqoriligini inobatga olgan holda qo'shimcha 25,8 mlrd. so'm mablag' ajratilishi belgilanmoqda. Respublikamizda jismoniy tarbiya va sport sohalarini isloh



muhitiga salbiy ta'sir etuvchi samarasiz soliq imtiyozlarini bekor qilish, shu orqali soliq bazasini kengaytirish, vazirlik va idoralarga ajratilishi ko'zda tutilgan byudjet mablag'laridan samarali va maqsadli foydalanish, ajratilgan mablag'lar samaradorligini ta'minlashga qaratilgan ko'plab taklif va tavsiyalar batafsil o'rganilganligi, ularning aksariyati loyihada

qilish va aholi o'rtasida sog'lom turmush tarzini shakllantirishga mazkur sohada davlat siyosatining muhim yo'nalishlaridan biri sifatida ahamiyatli ekanligini hisobga olib, sport turlarini ommaviylashtirish va rivojlantirish dasturlarini amalga oshirish xarajatlari uchun 54 mlrd. so'm qo'shimcha mablag' ajratilmoqda.

Qayd etilganidek, yosh-

SUV XO'JALIGI VAZIRI DEPUTATLAR SAVOLLARIGA JAVOB BERDI

Oliy Majlis Qonunchilik palatasida navbatdagi "Hukumat soati" bo'lib o'tdi.

Unda deputatlar "Suv resurslaridan samarali foydalanish, suv tejash bo'yicha ko'rilayotgan choralar, sohadagi xodimlarning mehnat xavfsizligini ta'minlash hamda suv xo'jaligi obyektlarini modernizatsiya qilish yuzasidan amalga oshirilayotgan ishlar to'g'risida"gi masalani muhokama etdilar.

Kun tartibidagi masala yuzasidan deputatlarning savollariga suv xo'jaligi vaziri Sh. Hamroyev javob berdi.

"Hukumat soati"

Ta'kidlanganidek, mamlakatimizda so'nggi yillarda suv resurslaridan samarali foydalanish, ularni boshqarish tizimini takomillashtirish, suv xo'jaligi obyektlarini modernizatsiya qilish bo'yicha izchil islohotlar amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga, global iqlim o'zgarishi, aholi sonining va iqtisodiyot tarmoqlarining o'sishi, ularning suvga bo'lgan talabi yil sayin oshib borishi tufayli suv resurslarining taqchilligi yildan-yilga kuchaymoqda.

Aholini va iqtisodiyotning barcha tarmog'ini suv bilan barqaror ta'minlash, sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash, suv xo'jaligiga bozor tamoyillari va mexanizmlarini hamda raqamli texnologiyalarni keng joriy etish, suv xo'jaligi obyektlarining ishonchli ishlashini ta'minlash maqsadida davlatimiz rahbarining "O'zbekiston Respublikasi suv xo'jaligini rivojlantirishning 2020 — 2030-yillarga mo'ljallangan konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni qabul qilindi.

Sohada amalga oshirilgan keng ko'lami ishlar natijasida suvni tejaydigan texnologiyalar qo'llangan maydonlar 1,2 mln. gektarga yetdi. Jumladan, 2017 — 2023-yillarda respublika bo'yicha jami 472 ming gektarda tomchilatib, 48 ming gektarda yomg'irlatib, 24,6 ming gektarda diskret, 63,5 ming gektarda boshqa turdagi sug'orish texnologiyalari joriy qilindi.

Bundan tashqari, qishloq xo'jaligida foydalanishdan chiqib ketgan jami 51 ming gektar sug'oriladigan yer maydonlari qayta foydalanishga kiritildi. Har yili suv resurslarini samarali boshqarish, suvni tejaydigan va raqamli texnologiyalarni joriy etish, irrigatsiya tadbirlarini amalga oshirish, yerlarni

lazerli tekislash, agrotexnik tadbirlarni o'z vaqtida o'tkazish hisobidan o'rtaacha 7 mlrd. metr kub suv resurslarini iqtisod qilishga erishilmoqda.

"Hukumat soati"da deputatlar qishloq xo'jaligida suvni tejash texnologiyalaridan samarali foydalanish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlarni e'tirof etgan holda bu boradagi ayrim muammolarga ham e'tibor qaratildi. Suv tejash texnologiyalaridan foydalanish, avvalo, fermerlarga katta manfaat keltirishi, hosildorlikka ijobiy ta'sir ko'rsatishi orqali moliyaviy manfaatlarga erishishi haqida aytishiga qaramasdan bu jarayon, asosan, majburiyat sifatida belgilanayotgani sabablari bilan qiziqdilar. Chunki deputatlarning joylarda saylovchilar bilan uchrashuvlarida aksariyat fermerlar, yer egalari tomonidan bu texnologiyalarni qo'llashga narxlarning qimmatligi hamda imtiyozlarning kamligi sabab qilib ko'rsatilayotir. Shu bois deputatlar mazkur texnologiyalarni o'rnatish va joriy qilish bo'yicha strategiya ishlab chiqilganmi yoki yo'q, degan savolni o'rtaqa tashladilar.

Suv xo'jaligi vaziri ushbu masalada, haqiqatdan ham, muammolar borligiga to'xtalib, uni amalga oshirish tizimli yo'lga qo'yilayotganini qayd etdi. Bu borada strategiya ishlab chiqilgani va unga asosan mavjud kamchiliklar bosqichma-bosqich bartaraf qilinayotgani bir qator misollar orqali ta'kidlab o'tildi. Shuningdek, suv tejovchi texnologiyalarni nafaqat xorijdan olib kelish, balki mahalliy ishlab chiqaruvchilar tomonidan ishlab chiqarilayotgan uskunalarini qishloq xo'jaligida qo'llash bo'yicha ko'rilayotgan samarali chora-tadbirlar

sezilarli natijalarni berayotgani aytib o'tildi.

Deputatlar suv xo'jaligi tizimidagi qo'shni davlatlar hududida joylashgan suv xo'jaligi davlat tashkilotlarida faoliyat olib borayotgan ishchi-xodimlarning mehnat xavfsizligini ta'minlash hamda ularni moddiy va ma'naviy qo'llab-quvvatlash borasida amalga oshirilayotgan ishlar bilan ham qiziqdilar.

Suv xo'jaligi vaziri ushbu savolga javob berar ekan, bu boradagi muhim jihatlarga to'xtalib o'tdi.

Qayd etilganidek, bugungi kunda Qarshi magistral kanalidan foydalanish boshqarmasida 919 nafar ishchi-xodim faoliyat yuritmoqda. Shundan Turkmaniston davlati hududida joylashgan suv xo'jaligi obyektlarida 700 nafar ishchi-xodim mehnat qiladi. Ularning mehnat xavfsizligini ta'minlash va moddiy rag'batlantirish maqsadida zarur chora-tadbirlar amalga oshirilib kelinyapti.

Vazir ushbu yo'nalishda deputatlar ko'targan masalaning dolzarbligidan kelib chiqib, 2024-yil 1-yanvardan ushbu obyektlar respublika byudjetiga o'tayotgani bois kelgusi yildan qiyin sharoitda ishlayotgan xodimlarning moddiy qo'llab-quvvatlanishi o'z vaqtida ta'minlanishini aytib o'tdi.

"Hukumat soati"da suv obyektlari va suv resurslaridan foydalanishda imzolangan xalqaro shartnomalar qaysi darajada bajarilayotgani yoki bitimlardagi kelishuvlar ijrosida qanday muammolar mavjudligi ham deputatlar tomonidan ko'tarilgan muhim masalalardan biri bo'ldi.

O'z navbatida, Sh. Hamroyev qo'shni davlatlar bilan suv xo'jaligi obyektlari bo'yicha bir qator bitimlar imzolangan va shular asosida muayyan ishlar amalga oshirilayotgani haqida to'xtalib o'tdi. Ayni paytda Qirg'izistonda joylashgan obyektlar to'liq ishlayotgani, Qozog'iston va Tojikiston bilan o'zaro kelishilgan holda ish olib borilayotgani, Turkmaniston bilan samarali muloqotlar yo'lga qo'yilayotgani ta'kidlandi.



Daraxt va butalarni noqonuniy kesganlar uchun jazo kuchaytiriladi

Majlisda "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qonun loyihasi ham ikkinchi o'qishda ko'rib chiqildi.

Qayd etilganidek, yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda har kim qulay atrof-muhitga ega bo'lishi hamda davlat atrof-muhitni yaxshilash, tiklash va muhofaza qilish, ekologik muvozanatni saqlash bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirishi o'z ifodasini topgan.

Davlatimiz rahbarining tashabbusi bilan mamlakat miqyosida daraxtzorlarni ko'paytirishga qaratilgan "Yashil makon" umummilliy loyihasi hayotga tatbiq etilishi, loyiha doirasida har yili kamida 200 million tup daraxt ekish nazarda tutilganligi bu boradagi ishlarning yanada samarali tashkil etilishiga olib kelmokda. Biroq ayrim shaxslarning o'simlik dunyosi obyektlariga nisbatan tajovuz-korona xatti-harakatlari, shu jumladan, daraxtlarning qonunga xilof ravishda kesilishi bilan bog'liq holatlar umumekologik vaziyatning yomonlashishiga sabab bo'lmoqda.

Mazkur qonun loyihasi bilan daraxtlar va butalarning qimmatbaho navlarini kesishga, kundakov qilishga, shikastlantirishga yoki yo'q bo'lishiga olib keladigan loyiha hujjatlarini ishlab chiqqanlik uchun ma'muriy javobgarlik

belgilanmoqda. Shuningdek, daraxtlarni qonunga xilof ravishda kesganlik, kundakov qilganlik yoki shikastlantirganlik uchun ma'muriy jazo choralarini kuchaytirilib, bir-birini takrorlovchi normalar chiqarib tashlanmoqda.

Bundan tashqari, davlat o'rmon fondiga kirmaydigan daraxtlar va butalarning qimmatbaho navlarini qonunga xilof ravishda kesgan yoki yo'q qilgan shaxslarning qonunga xilof ravishda kesilgan daraxt va buta o'rniiga kompensatsiyaviy daraxt va buta ko'chatlarini aynan daraxt va buta kesilgan joyga ekish hamda ularni uch yil davomida parvarishlash majburiyatini belgilanmoqda. Daraxtlar va butalarning qimmatbaho navlarini qonunga xilof ravishda kesganlik yoki yo'q qilganlik uchun yuridik shaxslarga nisbatan moliyaviy sanksiyalar qo'llanilishi nazarda tutilmoqda.

Deputatlarning ta'kidlashicha, qonun loyihasining ma'qullanishi daraxtlar va butalarni qonunga xilof ravishda kesish, kundakov qilish, shikastlantirish yoki yo'q qilish bilan bog'liq ma'muriy huquqbuzarliklarning oldini olishga, bu borada jismoniy va yuridik shaxslarning mas'uliyatini oshirishga, sohada huquqni qo'llashning yagona amaliyotini shakllantirishga yo'l ochadi.

Muhokamalar yakunida qonun loyihasi qabul qilindi.

Oliy Majlis Qonunchilik palatasi Parlament axborot markazi.

"Xalq so'zi".

ENERGETIKA SIYOSATI:

BARQAROR RIVOJLANISH
YOʻLIDAGI MUHIM ISLOHOTLAR

Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining Dushanbedagi uchrashuvi mintaqa mamlakatlarining koʻp tomonlama hamkorlikni kengaytirish va chuqurlashtirish saʼy-harakatlarini birlashtirish zaruratini yana bir bor tasdiqladi. Unda davlatimiz rahbari Markaziy Osiyo soʻnggi paytdagi dush kelayotgan muammolar tahlili bilan birga, ularning yechimiga oid hayotiy tashabbuslarni ham ilgari surdi.

Mintaqa xalqlari xavfsizligi, taraqqiyoti hamda farovonligini oshirish yoʻlida birlashishga, bu yoʻnalishdagi hamkorlikni yanada mustahkamlashga chaqirdi. Oʻzbekiston rahbarining savdo, investitsiya, sanoat kooperatsiyasi, energetika, transport, madaniy-gumanitar, xavfsizlik kabi sohalaridagi aloqalarni rivojlantirishga qaratilgan tashabbuslari alohida eʼtiborga sazovor. Albatta, Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan tashabbus hamda takliflar Markaziy Osiyo davlatlarining umumiy manfaatlarini aks ettiradi. Jumladan, energetika sohasida xavfsizlikni taʼminlash borasidagi gʻoyalar ham dolzarbligi bilan ajralib turadi.

Nuqtai nazar

Tan olish kerak, keyingi yillarda mintaqada energetika infratuzilmalarini rivojlantirish surʼatlari sanoatlashirish hamda urbanizatsiya jarayonlari, shuningdek, demografik oʻsishdan orqada qoldi. Bu mintaqada mamlakatlarining uzoq muddatli barqaror rivojlanishi yoʻlidagi jiddiy tahdid sanaladi.

Shu bois davlatimiz rahbari bunday sharoitda tarmoq vazirlilari va milliy kompaniyalarning geologiya-qidiruv ishlarini olib borish hamda istiqbolli konlarni oʻzlashtirish, energiya resurslarini saqlash va yetkazib berish boʻyicha mavjud infratuzilmalarni kengaytirish, zamonaviylarini yaratish sohasidagi hamkorligini yanada kuchaytirish tarafdori ekanligini, elektr energiyasini yetkazib berish uchun yangi magistrallar tarmoqlarni barpo etish zarurligini taʼkidladi.

Sir emas, bugun mintaqadagi davlatlarning har biri aholini, sanoat korxonalarini uzluksiz elektr quvvati bilan taʼminlashda qiyinchiliklarga duch kelyapti. Markaziy Osiyo mintaqasi, bir tarafdin, energetika resurslariga boy, boshqa tomondan, oʻsha energetika resurslari teng taqsimlanmagan yoxud ular turli-tuman. Suv-energetika masalalari hal etilmagani esa muvaffaqiyatli integratsiya yoʻlida toʻsiq boʻlayotir.

Masalan, oʻtgan yil yanvar oyida Qozogʻiston, Oʻzbekiston va Qirgʻizistonning bir qator viloyatlari elektr energiyasiz qoldi va bu butun boshli energetika halqasidagi taʼminot uzilishlariga sabab boʻldi. Muammo tez orada bartaraf etildi, biroq u mintaqamizdagi hamma narsa oʻzaro bogʻliq ekanini koʻrsatib berdi.

Muammo shundaki, Markaziy Osiyo mamlakatlaridagi elektr energetikasi tizimi eskirib ketgan. Ammo mintaqamiz gidroenergetika sohasini rivojlantirish uchun katta salohiyatga ega. Yaʼni davlatimiz rahbari taʼkidlaganidek, Tojikiston bilan Zarafshon daryosida GES qurish loyihasi birgalikda ishlab chiqilmoqda, Qirgʻizistonda “Qambarota GES-1” loyihasini amalga oshirish masalasi faol hal etilmoqda.



Diversifikatsiya, investitsiya va ilgʻor texnologiyalar

Energiya manbalarini diversifikatsiya qilmasdan, muqobil energetika sohasiga investitsiya va texnologiyalarni jalb etmasdan hamda “yashil” vorodrodi ishlab chiqarishni yoʻlga qoʻymasdan turib, mintaqani barqaror rivojlantirish mumkin emasligi ayon boʻlib bormoqda. Zero, oʻtgan yilgi qish energetika tizimiga oyna tutdi. Muammo va kamchiliklar koʻzga yaqqol koʻrindi. Galdagi asosiy vazifa bu yilgi muammolar keyingi yilda takrorlanishiga yoʻl qoʻymaslik.

Shu maqsadda Oʻzbekistonda energetika samaradorligini oshirish, tejankorlik boʻyicha ishlarni joriy etish, energianing qayta tiklanuvchi va muqobil turlarini ishlab chiqarishga jalb qilishga asosiy vazifa sifatida qaralmoqda.

Jumladan, elektr energiyasini tejashning muqobil varianti quyosh panellaridan, suv, issiqlik elektr stansiyalari energiyasidan foydalanishdir. Mamlakatimizda ishlab chiqariladigan elektr energiyasining qariyb 85 foizi gazda ishlovchi issiqlik elektr stansiyalari hissasiga toʻgʻri keladi. Qolgan qayta tiklanuvchi energiya manbalari — GESlar va quyosh fotoelektr stansiyalari tomonidan yetkazib beriladi.

Joriy yil oxirigacha ular safiga shamol elektr stansiyasi qoʻshilishi kutilyapti. Umuman olganda, 2026-yilga borib mamlakatda hosil qilinadigan elektr quvvatining 30 foizini “yashil” energiya tashkil etishi rejalashtirilgan. Makroiqtisodiy va hududiy tadqiqotlar instituti tahlillariga koʻra, Oʻzbekistondagi daryo oqimlarining nazariy gidroenergetika salohiyati

yiliga 88,5 milliard, texnik gidroenergetika salohiyati esa 27,4 milliard kilovatt-soatga yetadi. Hozirda ushbu imkoniyatlarning toʻrtidan biridan foydalanilmoqda. 2022-yilda jami elektr energiyasining 9 foizi va amaldagi quvvatlarning qariyb 12,9 foizi GESlar tomonidan ishlab chiqarilgan.

Davlatimiz rahbarining 2023-yil 30-martdagi “Gidroenergetika sohasini yanada isloh qilish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi qarorida belgilangan vazifalar ham aholini elektr energiyasi bilan taʼminlashda muhim ahamiyatga ega. Unga muvofiq 2023 — 2030-yillarga moʻljallangan gidroenergetikani yanada rivojlantirish boʻyicha qoʻshimcha chora-tadbirlar dasturi tasdiqlandi.

Mazkur dasturga qoʻshimcha istiqbolli loyihalar kiritilishi hisobiga 2030-yilga borib hosil qilinishi belgilangan 3 ming 416 megavatt elektr quvvati hajmi qariyb 5 ming megavattga yetkaziladi. 2023 — 2030-yillarda gidroenergetikani yanada rivojlantirish va gidrosalohiyatdan foydalanish darajasini oshirish, yangi quvvatlarni yaratish hamda mavjudlarni modernizatsiya qilishga qaratilgan 47 ta investitsiyaviy loyiha hamda 2023 — 2025-yillarda kooperatsiya asosida mahalliy lashtirish uchun taklif etilayotgan asbob-uskunalar, butlovchi va ehtiyot

tomonlari koʻp. Masalan, biror-bir tashkilotning bir yillik elektr energiyasiga boʻlgan ehtiyoji 500 ming kilovattni tashkil qilsa, quyosh panellarini oʻrnatish natijasida mana shu ehtiyoj 50 foizga qisqaradi.

Ijtimoiy va uy-joy kommunal xizmat koʻrsatish sohalarida hamda iqtisodiyot tarmoqlarida qayta tiklanuvchi energiya manbalarini keng joriy etish, energiya samaradorligini oshirishga alohida eʼtibor qaratilmoqda. Prezidentimizning 2023-yil 16-fevraldagi “2023-yilda qayta tiklanuvchi energiya manbalarini va energiya tejovchi texnologiyalarni joriy etishni jadallashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida” gi qarori bu boradagi ishlarni yanada takomillashtirishda muhim ahamiyatga ega.

Qarorga koʻra 2023-yilda umumiy quvvati 4 300 MVt boʻlgan qayta tiklanuvchi energiya manbalari ishga tushiriladi. Jumladan, 2 100 MVt — yirik quyosh va shamol elektr stansiyalari, 1 200 MVt — ijtimoiy soha obyektlari, xoʻjalik subyektlarining bino va inshootlari hamda xonadonlarda oʻrnatiladigan quyosh panellari, 550 MVt — tadbirkorlar tomonidan barpo etiladigan kichik fotoelektr stansiyalari foydalanishga topshiriladi.

Taʼkidlash joizki, davlatimiz rahbarining

bir qator qarorlari qabul qilinib, iqtisodiyotning turli tarmoqlarida energiya samaradorligini oshirish kabi ustuvor yoʻnalishlarda keng qamrovli ishlar bajarildi.

“Yashil” energetika zarurati

“Yashil” energetikani rivojlantirish — davr talabi. Bu borada birgina Navoiy viloyatida ishga tushirilgan, quvvati 100 megavatt boʻlgan zamonaviy quyosh fotoelektr stansiyasini olaylik. Nafaqat mamlakatimiz, balki butun Markaziy Osiyoda yagona hisoblangan ushbu stansiya yiliga 252 million kilovatt-soat toza elektr energiyasi ishlab chiqarishga qodir boʻlib, natijada 80 million metr kub tabiiy gazni tejash, atrof-muhitga 160 ming tonna zararli “issiqxona gazi” tarqalishining oldini olish imkonini beradi.

Mutaxassislarning fikricha, yurtimizda ana shunday noyob quyosh fotoelektr stansiyalarini qurish hisobiga jami 600 milliard kilovatt-soat elektr energiyasi ishlab chiqarish imkoniyati mavjud. Bu mamlakatimizda jami energiyaga boʻlgan talabdan 8 barobar koʻp, degani.

2022 — 2026-yillarga moʻljallangan Yangi Oʻzbekistonning taraqqiyot strategiyasida ham yaqin istiqbolda milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori oʻsish surʼatlarini taʼminlash bilan bir qatorda “yashil” iqtisodiyot texnologiyalarini barcha sohaga faol joriy etish orqali iqtisodiyotning energiya samaradorligini 20 foiz oshirish va havoga chiqariladigan zararli gaz miqdorini 20 foiz kamaytirish boʻyicha ustuvor vazifalar belgilangan.

Shu maqsadda yirik quvvatli quyosh fotoelektr va shamol elektr stansiyalarini qurish loyihalari amalga oshirilmoqda va gidroenergetikani yanada rivojlantirish davom etmoqda. Bu boradagi islohotlar mamlakatimiz yalpi ichki mahsulotining energiya sigʻimini, ishlab chiqarish tannarxini yanada kamaytirish va qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishni kengaytirish kabi muhim vazifalarni hal etishga qaratilgan.

Shubhasiz, energetika inson va jamiyat hayotida muhim oʻrin tutadi, ularning turli ehtiyojlarini qondirish imkoniyatlarini kengaytirishga sharoit yaratadi. Inson sivilizatsiyasining rivojlanishi foydalanilayotgan energiya hajmi hamda turlari bilan har doim chambarchas bogʻliq boʻlgan. Bugun Prezidentimiz olib borayotgan siyosatning tub negizida ham energetik mustaqillikka erishish, aholini hamda tadbirkorlik subyektlarini elektr energiyasi bilan uzluksiz taʼminlash, xalqni rozi qilish maqsadi yotibdi.

Mashʼal SAIDOV,
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
dotsenti, iqtisodiyot fanlari doktori.

MANZILINGIZ YAQIN,
YOʻLINGIZ BEXATAR BOʻLSIN!

Aslida, koʻchalarda transport vositalarining koʻpayishi taraqqiyotning jadallashganidan, aholi farovonligining oshayotganidan darak beradi. Shu bilan bir qatorda, bu holat yoʻl harakatini tartibga solish borasida yangidan-yangi yechimlarni talab etadi. Koʻpgina rivojlangan davlatlarda qoʻshimcha yoʻllar, koʻpriklar, tunnellar qurilishi

transport infratuzilmasini yoʻlga qoʻyishning oqilona yechimi sifatida qaraladi. Yangi Oʻzbekistonda ham ana shu tajribaga eng samarali vosita sifatida yondashilmoqda. Oxirgi yetti yil mobaynida faqatgina avtotransport tirlbandliklari hosil boʻladigan oʻndan ortiq chorrahalarda yoʻl oʻtkazgichlar, aylanma va qoʻshimcha yoʻllar barpo

etildi, eskilari rekonstruksiya qilinib, kengaytirildi. Bu boradagi ishlar davom ettirilmoqda.

Prezidentimizga namoyish qilingan loyihaga koʻra, umumiy maydoni toʻrt gektarni egallaydigan transport bogʻlamasi qurilishi 2 bosqichdan iborat boʻladi. Birinchi bosqichda Toshkent — Boʻstonliq yoʻnalishidagi ikkita yer osti yoʻli hamda Parkent — Toshkent yer osti yoʻli qurilishi 2024-yilning may oyida yakunlanishi koʻzda tutilmoqda. Ikkinchi bosqich 2024-yilning noyabrda boshlanadi va 2025-yilning may oyiga borib yakunlanadi. Qurilish ishlari toʻliq bajarilgach, transport vositalarining toʻxtamasdan harakatlanishi taʼminlanadi.

Hozirgi paytda yer osti tunneli qurilishi uchun tayyorgarlik koʻrish, loyihani boshqarish va texnik nazorat Turkiyaning “Arkon” kompaniyasiga yuklatilgan. Ushbu qurilish bitgach, soatiga 8 mingta, aylanma va qoʻshimcha yoʻllar bilan birgalikda hisoblaganda esa 24 mingtagacha avtotransport vositalarining harakatlanishiga imkoniyat yaratiladi.

ishlari yakuniga yetkazildi.

— Andijonlik sholi korlar bilan olti yil davomida hamkorlik qildik, — deydi “Kopia” markazi direktori Ox Sung Jong. — Erishgan yutuqlarimiz amaliyotda oʻz samarasini berishi, shubhasiz. Boisi shu kungacha hosildorlikni

40 foizga, fermer xoʻjaligi daromadini esa 30 foizga oshirishga erishdik.

Joriy yilda ushbu fermer xoʻjaligida birinchi mavsumda 65 sentnerdan, ikkinchi mavsumda esa 50 sentnerdan hosil olishga erishildi. Shunda bir gektar maydondagi sholipoyadan 11,5 tonna

hosil oʻrib olindi. Anʼanaviy usulda bir gektar maydondan 35 million soʻm foyda olingan boʻlsa, sholi chiliklarga yangicha yondashuv natijasida ushbu koʻrsatkich 65 — 70 million soʻmni tashkil etmoqda.

Saminjon HUSANOV
 (“Xalq soʻzi”).

Aksiya

ITALIYANING YIRIK SHAHARLARIDA
OʻZBEKISTONNING SAYYOHLIK SALOHİYATI
FAOL TARGʻIB QILINMOQDA

Mazkur aksiya Milan, Breshiya, Bergamo, Kalyari, Kataniya, Komo, Jenoa, Lechche, Livorno, Mestre, Neapol, Padova, Pyachense, Rim, Treviza, Triyest, Varezze, Verona va Vichensa shaharlari boʻylab davom etmoqda.

Italiyaning yirik shaharlaridagi katta ekranlarda Oʻzbekiston sayyohlik salohiyatiga bagʻishlangan videoroliklar namoyishi yoʻlga qoʻyildi.

Oʻzbekistonning turizm salohiyatini Yevropa mamlakatlari, jumladan, Italiyada keng targʻib qilish maqsadida amalga oshirilayotgan

ushbu loyiha mamlakatimizning Rimdagi elchixonasi tomonidan “Alpitour World” turistik kompaniyasi bilan hamkorlikda yoʻlga qoʻyildi.

Bundan tashqari, Italiyaning ommabop “Radio Montecarlo” va “Radio Voyage” radiokanalari Oʻzbekiston salohiyatiga ba-

gʻishlangan eshittirishlar efi-

ga uzatilmogda. Qayd etish joizki, joriy yilning yanvar — oktabr oylarida Italiyadan Oʻzbekistonga kelgan sayyohlar soni oʻtgan yilning shu davridagiga nisbatan uch barobarga oshdi. Ushbu aksiyaning maqsadi ham Oʻzbekiston turizm salohiyatini italyaliklar oʻrtasida keng targʻib qilish va bu orqali ularni mamlakatimizga jalb qilishdan iboratdir.

“Dunyo” AA.
Rim

BOLALARNING KO‘ZLARI

zo‘ravonlik va qo‘rquvdan hadiksirab emas,
quvonchun shodlikdan chaqnab tursin

Xalqimizda “Daraxtdan meva olaman desang, niholigidan parvarish qil” degan hikmat bor. Bolajon xalqimiz. Yurtdoshlarimizning baxti, kelajagimizning ertasi ham shu bolajonlar. Zero, inson farzandi uchun hamisha ezgu tilak va intilishlar bilan yashaydi.

Bugunning gapi

Bugungi globallashuv davrida irodasi baquvvat, mustaqil dunyoqarashga ega, sog‘lom va har tomonlama barkamol avlodni shakllantirish oldimizda turgan muhim vazifalardan. Ammo afsuski, bolalarga nisbatan zo‘ravonlik jamiyatdagi jiddiy muammolardan biri bo‘lib qolmoqda. Turli shakllardagi zo‘ravonlik — gohida o‘z otasi yoki onasi tomonidan tazyiqqa uchrayotgan bolalar, jinsiy tajovuzga uchragan voyaga yetmaganlar haqida ko‘p eshitamiz, ba’zida guvoh bo‘lamiz. Ijtimoiy tarmoqlarda kunda-kunora tarqalayotgan bu kabi zo‘ravonliklar jamiyatning og‘riqli nuqtasiga aylanib ulgurdi. Holbuki, bunday zo‘ravonlik nainki muayyan shaxslarga, balki oila, jamiyatning tanazzulga yuz tutishiga sabab bo‘luvchi o‘ta salbiy ilatdir. Bu — xalqimiz azaldan e‘zozlab kelgan bolajonlik fazilatlariga mutlaqo zid.

Jamiyat muhitiga
berilayotgan zarba

Ulug‘ shoir va faylasuf Pahlavon Mahmud “Mamlakatda bitta bolaning ko‘zidan yosh oqsa, men o‘zimni baxtli hisoblay olmayman”, degan ekan. Yurtimizda bugun olib borilayotgan siyosat ham shu so‘zlarga hamohang, ya‘ni inson qadrini ulug‘lash, farzandlarning yayrab-yashnab voyaga yetishi, oilalarni qo‘llab-quvvatlash, uyli-joyli qilishga qaratilgan.

Shunga qaramay, ba‘zan ayollarning, bolalarning zo‘ravonlikka uchrashidek holatlar hamon yuz berayotgani bilan sira murosqa qilib bo‘lmaydi.

Ma‘lumotlarga ko‘ra, O‘zbekistonda yil boshidan beri 1 ming 240 nafar bola turli shakldagi zo‘ravonlikka duchor bo‘lgan. Eng achinarlisi, ularning 417 nafari jinsiy zo‘ravonlikni boshidan o‘tkazgan. UNICEF tomonidan yaqinda o‘tkazilgan ko‘p ko‘rsatkichli so‘rovdan shu narsa ma‘lum bo‘lyaptiki, O‘zbekistonda 1 yoshdan 14 yoshgacha bo‘lgan bolalarning uchdan ikki qismi yoki 62 foizi

zo‘ravonlik bilan tarbiyalash usullariga uchragan. Ya‘ni ular jismoniy jazo va psixologik tajovuzlarga duchor etilgan. E‘tibor bering, 15 — 19 yoshdagi qizlarning 33 foizi er o‘z xotinini urishga haqli, deb hisoblaydi. Bu bugungi kunda “kurakda turmaydigan” dunyoqarash.

Bu boradagi muammolarni hal qilishda xotin-qizlar faollari, mahalla, huquq-tartibot idoralarining faoliyati samaradorligini oshirish, ularning o‘zaro hamkorligini kuchaytirish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Bu haqda gap ketganda, Ijtimoiy himoya milliy agentligi, Adliya vazirligi va UNICEF hamkorligida o‘tkazilgan tadbirning nihoyatda ahamiyatli ekanini aytib o‘tish o‘rinli. Chunki unda “Bolalarni zo‘ravonlikning barcha shakllaridan himoya qilish to‘g‘risida”gi qonun loyihasi taqdim etildi. Zo‘ravonlikning oldini olish va ularga qarshi kurashish bo‘yicha ko‘p tarmoqli xizmatlarni ishlab chiqish va joriy etishni nazarda tutuvchi bu qonun loyihasini qabul qilish farzandlarimizni tazyiqlar va zo‘ravonliklardan himoyalashda dasturilamal bo‘lishi mumkin.

Albatta, bu qonunning qabul qilinishi bolalarning huquqiyo himoyasini kuchaytiradi, oilaga maslahat berish, psixologik-ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, hayotiy ko‘nikmalarni o‘rgatish, xavfsiz uy-joy va boshqa muammolarni hal etish tizimlarini takomillashtirishga xizmat qiladi.

Eng katta dushman —
befarqlik

Oiladagi zo‘ravonlik holatlari ko‘payib borayotgani o‘ta achinarli ekan haqida Prezident huzuridagi Ijtimoiy himoya agentligi direktorining birinchi o‘rinbosari Shahnoza Mirziyoyeva yig‘ilishda alohida ta’kidlab o‘tdi. Tasavvur qiling, joriy yilning 9 oyida qarindoshlar, jumladan, yaqinlar tomonidan bolalarga nisbatan 166 ta zo‘ravonlik holati sodir etilgan. Afsuski, hatto rasmiy statistika

ham ko‘lamni obyektiv baholashga imkon bermaydi. Haqiqiy holat bundan ham battar, deydi u. Zo‘ravonlik qurboni bo‘lgan bolalar, odatda, zo‘ravonlikka duchor bo‘lganliklari haqida xabar bermaydi. Ko‘pincha ular qo‘rquv, uyat yoki oilaga sadoqat hissi sabab sodir bo‘lgan holat haqida indamaydi. Bolaga eng yaqin odamlardan biri zo‘ravonlik qilsa, buni u hech kimga aytmaydi, aytishga qo‘rqadi. Taassufki, bu holatni, johillikni uning yaqinlari, qarindosh-urug‘lari, qo‘ni-qo‘shnilari eshitisa ham tegishli idoralarga xabar bermaydi.

Endi savol tug‘iladi: biz befarqlikdan qachon voz kechamiz? Axir maktabda, oilada bolalarga nisbatan zo‘ravonlik qilingani ma‘lum bo‘la turib nega uni oshkor etishdan qo‘rqamiz? Vasiylik, homiylik va huquq-tartibot organlariga bu xususda xabar berish fuqarolik burchimiz ekanini nega anglab yetmaymiz?

Bu kabi savollar juda ko‘p va bu odamlar orasida loqaydlikka beriluvchilar ham kam emasligidan dalolatdir.

Bunday noxush holatlar “Sen menga

“**Urib, kaltaklab katta qilingan bola yaxshi inson bo‘lib emas, doim nimadandir hayiqib, o‘z fikrini aytay olmay, pana-pastqam joylarda yuradigan odam bo‘lib yetishadi. Bizga o‘zining qat’iy fikriga ega, tafakkuri boy yoshlar kerak.**”

tegma, men senga tegmayman” yoki “Och qorim — tinch qulog‘im” kabi miyamizga o‘rmashib qolgan salbiy illatlar oqibati, desak, mubolag‘a emas. Ulardan qutulmas ekanimiz, bunday ko‘ngilsizliklar davom etaveradi. Zo‘ravonlikka o‘sha loqayd odamning farzandi ham duchor bo‘lmisligiga hech kim kafolat bera olmaydi. Navqiron avlodga, kelajagimiz egalarga bunday munosabat o‘z oyog‘imizga o‘zimiz bolta urish bilan barobar.

To‘g‘ri, bugun internetdan foydalanish darajasi ortib boryapti. Bu tizimning foydali jihatlari juda ko‘p. Ammo irodasi bo‘sh va jinoyatga moyil kimsalar uchun u qurol vazifasini ham bajaryapti. Masalan, bolalarga nisbatan zo‘ravonlikning kiberbulling va onlayn jinsiy ekspluatatsiya kabi yangi shakllari paydo bo‘layotgani juda gap. Xo‘sh, bunga qarshi biz qanday kurash olib boryapmiz? To‘g‘rirog‘i, qay yo‘sinda uning oldini olishga harakat qilayapmiz?

Ochig‘ini aytganda, eng avvalo, inson nomiga munosib bo‘lgan bu kabi voqealarning sodir etilayotgani o‘ta achinarli bo‘lsa, ikkinchidan, ularning

odat tusiga kirayotgani, odamlarda ko‘nikish hissi paydo bo‘layotgani yana bir muammodir. Befarqlik, e‘tiborsizlik, loqaydlik esa muammolarning ildiz otishiga olib keladi.

Mehrni “import” qilib
bo‘lmaydi

Tan olish kerak, tazyiqqa, zo‘ravonlikka uchrayotgan bolalarning ko‘pchiligi ota-onasi xorijga ishga ketgan yoki qarindoshlar qo‘lida qolgan o‘smirlardir. Bola qarindoshi qo‘lida o‘tish, ulg‘ayishi mumkin, ammo u ota-onasiz o‘zini himoyasiz sezadi va tazyiqlarga nishon bo‘ladi.

O‘zim guvohi bo‘lgan voqea. Bir ayol farzandlari va erini uyda qoldirib, xorijga ishga ketdi. Bunday chog‘da hammadan ham farzandlarga qiyin. Endigina 5-sinfda o‘qiydigan o‘g‘ilning aytishicha, kiyimini o‘zi yuvadi, ovqatni o‘zi tayyorlaydi. Dars qilishga otasi ko‘maklashmaydi. Shuning uchun qo‘ni-qo‘shnilariga chiqadi, tuni bilan ko‘chada yurib, charchaganidan

so‘ng uyga kelib uxlab qoladi. Otasi esa farzand tarbiyasiga befarq. Ona goh-gohida telefon qilib turadi: o‘g‘ildan hol-ahvol va nima yuborish haqida so‘raydi, xolos. Bolaga esa mehr kerak! Uni esa yuborish qiyin. Ayonki, mehrni “import” qilib bo‘lmaydi...

Internet manbalaridan olingan ma‘lumotlarga ko‘ra hozirgi kunda 570 ming nafarga yaqin o‘zbekistonlik ayollar xorijda ishlayapti. Ularning aksariyati farzandlarini onasiga, opa-ukasiga yoki qavmu qarindoshi qaramog‘iga qoldirib ketgan. Bolaning onasiz ulg‘ayishi fojidan boshqa narsa emas. Buning sababini tirikchilikka yo‘yadiganlar ko‘plab topiladi. Ammo tirikchilikni el nomus qiladigan, farzandlar hoz-zor chekadigan, jamiyat zarar ko‘radigan ishlar bilan oqlash aslo mumkin emas.

Buyuk faylasuf Gyotening “Millatni qutqarish uchun aslida ko‘p narsa kerak emas, ota-ona va o‘qituvchi kifoya qiladi, xolos”, degan fikri bejiz aytilmagan. Tirikchilik bahonasida oilasidan, farzandlaridan, el-uludan uzoqlashayotgan ayollarimiz bir emas, uch gavharni yo‘qotmoqda. Birinchisi

— bolasi tarbiyasidagi kemtkilik bo‘lsa, ikkinchisi — ayollik or-nomusiga putur yetishi. Uchinchisi esa qarovsiz qolgan bolaning zo‘ravonlik va tazyiqlarga nishon bo‘lishi.

Xalqimizda “Qonun taqiqlay olmagan narsalarni goho nomus taqiqlaydi”, degan naql bor. Aytmoqchimizki, nomusli odam ma‘naviy qadriyatni moddiy boylikka almashtirishni ep ko‘rmaydi.

Gohida shunday holatlar ro‘y beradiki, oilada o‘g‘il otaning fikrlarini rad etadi. Ota esa haqligini isbotlash uchun o‘g‘liga tazyiq o‘tkazadi. Shu o‘rinda mashhur yozuvchi Ernest Xemingueyning ibratli bir gapi yodga tushadi: odamni o‘ldirish mumkin, lekin yengib bo‘lmaydi.

Bir oilani bilaman, ota o‘g‘liga tazyiq o‘tkazib, zo‘ravonlik qilib, uni o‘ziga bo‘ysundirishga uringandi. Buni qarangi, o‘g‘il otaga bo‘yin egmadi va uydan bosh olib ketdi. Mana, 25 yilki, o‘g‘il dom-daraksiz.

— Men farzandni urib, so‘kish, tazyiq o‘tkazib, unga ozor berishga mutlaqo qarshiman, — deydi Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati Dilbar Mamajonova. — Ilmli, ziyloli va ma‘naviyatli inson farzand tarbiyasida bunday qo‘pol xatoga yo‘l qo‘ymaydi. Urib, kaltaklab katta qilingan bola yaxshi inson bo‘lib emas, doim nimadandir hayiqib, o‘z fikrini aytay olmay, pana-pastqam joylarda yuradigan odam bo‘lib yetishadi. Bizga o‘zining qat’iy fikriga ega, tafakkuri boy yoshlar kerak. Axir biz Ikkinchi jahon urushining qahatchilik yillarida ham millionlab bolalarni o‘z bag‘riga olgan, buyuk xalq vakillarimiz!

Darhaqiqat, xalqimiz eng ulug‘ insoniy fazilatlari bilan dunyoga tanilgan. Ajdodlarimiz qalblarida imon-e‘tiqod, mehr-oqibat kuchli bo‘lgan. Davlatimiz rahbari hayotimizdagi har qanday muammoga tik qarab, kamchiliklarimizni, nuqsonlarimizni ochib tashlamoqda. Ularning yechimini ko‘rsatib berayotir. Bu barchamizga ibratdir. Shunday ekan, ulug‘ alomalar aytganidek, zamoning ko‘zlariga tik qaramoq — kelajakning ko‘ziga, bolamizning ko‘ziga tik qarab yashamoqni anglatadi. Bolalarning ko‘zlari esa kelajakning ko‘zlaridir. Bu nigohlar qo‘rquv va hadiklardan, zo‘rovonliklardan hayiqib emas, quvonchu shodliklardan porlab tursin! Ana shundagina biz tarixi, ajdodlari buyuk, kelajagi ham albatta, yorqin, yorug‘ bo‘ladigan xalqqa xos yo‘l tutgan bo‘lamiz.

Faxriddin BOZOROV
 (“Xalq so‘zi”).

Turizm

SAYOHATDAN
ZAVQLANGAN
KO‘NGILLAR

Ijtimoiy himoya milliy agentligi tashabbusi bilan yurtimizda 1-noyabrdan 30-noyabrga qadar “Keksalar uchun turizm oyiligi” o‘tkazilmoqda.



Mazkur xayrli loyiha doirasida Namangan viloyatining Chortoq, Davlatobod, Pop, Chust, Kosonsoy tumanlarida yashovchi 130 nafar fuqaro Chortoq tumanidagi “Bibi Naima” va “Sulton Uvays Qaraniy” majmualariga sayohat qildi.

Uzoq yillik tarixga ega “Sulton Uvays Qaraniy” majmuasi o‘zining ramziy darvozasi, mahobatli maqbara, masjid, muzey, kungurador ayvon va kutubxonasi bilan e‘tiborni o‘ziga tortadi. Uning muzeyida saqlanayotgan hajm jihatdan O‘zbekiston musulmonlari idorasidagi Qur‘oni Usmoniydan keyin ikkinchi o‘rinda turuvchi Qur‘oni karimning qo‘lyozma nusxasi, ayniqsa, e‘tiborni tortadi. Sayohatga kelgan otaxonu onaxonlar tabarruk maskan bilan tanishuvdan unutilmas tasurot oldi.

Shu kuni Chortoq tumanidagi 14-bolalar musiga va san‘at maktabi o‘quvchilari ijrosidagi “Bir zamon — bir Vatan farzandlarimiz!” madaniy-ma‘rifiy dasturi mehmonlarga yaxshi kayfiyat bag‘ishladi.

— Bugungi sayohatdan ko‘ngillar

yayradi, — deydi quvonchi ichiga sig‘may turgan Boshorat Mahmudova.

— Viloyatimizda bu singari obod

ziyoratgohlarga biz, nuroniylarning

tashkiliy ravishda olib kelinaotgani

ayni muddao. Bundan benihoya

mamnunmiz.

Oylik doirasidagi mazmunli sayohatlar viloyatdagi “Axsikent” tarixiy yodgorligi, Is‘hoqxon Ibrat majmuasi, “Baliqliko‘l” ziyoratgohi singari manzillarga ham tashkil etilmoqda. Hozirga qadar uch mingdan ziyod nuroniylar, shuningdek, aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlami vakillari mazkur yo‘nalishlarda madaniy hordiq chiqarish imkoniyatidan bahramand bo‘ldi.

Qudratilla NAJMIDDINOV
 (“Xalq so‘zi”).

Qulaylik

“INSON” IJTIMOIY
XIZMATLAR MARKAZI
ISH BOSHLAGI

Xorazm viloyatining Urganch tumanida “Inson” ijtimoiy xizmatlar markazi ish boshladi. Avvallari ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish turli tashkilotlar tomonidan tarqoq holda amalga oshirilishi tufayli ortiqcha ovoragarchiliklar yuzaga kelib, fuqarolarga noqulayliklar tug‘dirardi.



Endilikda 26 turdagi ijtimoiy xizmat va yordamlar ko‘rsatish ushbu markaz hamda mahallalardagi ijtimoiy xodimlar tomonidan yagona tizim orqali amalga oshiriladi. Kelgusi yildan bu xizmatlar soni ortib, yana yangi 23 ta ijtimoiy xizmat yo‘lga qo‘yiladi.

Bininging ochilish marosimi munosabati bilan o‘tkazilgan tadbirida nuroniylar, nogironligi bo‘lgan fuqarolar va keng jamoatchilik vakillari qatnashdi.

Odilbek ODOMBOYEV
 (“Xalq so‘zi”).

IS GAZIDAN ZAHARLANISH

isitish moslamalaridan foydalanish hamda
yong‘in xavfsizligi me‘yorlariga rioya etmaslik oqibati

Kunlar sovib, havo harorati pasayishi bilan har yili is gazidan zaharlanish holatlari qayd etiladi. Navoiy viloyati misolida aytadigan bo‘lsak, bir nechta ana shunday noxush hodisalar ro‘y berib, ulardan birida er-xotin vafot etdi, ikkinchisida voyaga yetmagan o‘smir yig‘itning hayoti shifokorlarning malakali birinchi tibbiy yordami tufayli saqlab qolindi. Viloyatda o‘tgan yilgi kuz-qish mavsumida esa uchta holatda is gazidan zaharlanish holati qayd etilgandi.

Dolzarb mavzu

Bu borada aholi o‘rtasida muntazam ravishda targ‘ibot va tushuntirish ishlari olib borilishi hamda tegishli vazirlik, idoralar tomonidan ko‘rilayotgan choralariga qaramay, afsuski, vaziyat o‘nglanib ketmayapti.

Xo‘sh, bunga nima sabab va kim aybdor? Ushbu ayanchli hodisalarning oldini olish mumkinmi?

— Is gazidan zaharlanishlarning kelib chiqish sabablari va manbalari o‘rganilib, tahlil qilinganda aksariyat holatlarda fuqarolarning tabiiy gazdan noto‘g‘ri foydalanishi, ularni nazoratsiz qoldirishi, isitish qurilmalari, gaz quvurlari ulangan joydan gaz sizib chiqishiga e‘tiborsizlik tufayli ro‘y berganligiga guvoh bo‘lamiz, — deydi Navoiy shahar FVB boshlig‘i o‘rinbosari podpolkovnik Dilshod Suvonov. — Shuningdek, qo‘lbola isitish moslamalari bilan isitiladigan xonalarda mo‘ri hamda dudburonlar yo‘llarining yoz bo‘yi to‘lib

qolishi (qushlarning uya qo‘yishi, barg va xazonlarning tushishi) favqulodda havo keskin sovgan kunlarda ularni tozalamasdan foydalanish is gazidan zaharlanishga olib kelmoqda.

Mutaxassislarning ta’kidlashicha, is gazidan issiq mavsumlarda ham zaharlanish holatlari kuzatiladi. Buning uchun xonada tabiiy gaz, ko‘mir yoki organik moddalarning to‘liq yonmagan gazining to‘planishi kifoya.

— Yoz faslida eshik yoki derazalarning ochiq turishi fuqarolarning is gazidan zaharlanishning oldini oladi, — deydi Navoiy viloyati bosh toksikolog shifokori Murtazo Xodjayev. — Bir misol keltiramiz: ancha ilgari uch ulfaat avtogarajida ichkilikbozlik qilib, avtomashinani o‘t oldirgan holda uxlab qolishadi. O‘rni kelganda ta’kidlash joizki, is gazi rangsiz, hidsiz va ta’msiz bo‘ladi. Zaharlanish darajasi gazning miqdori, kishining is gazi to‘plangan

joyda qancha vaqt qolib ketganiga bog‘liq. Uning organizmga ta’siri natijasida qonda keskin o‘zgarish kuzatiladi, ya‘ni qon tarkibidagi gemoglobin bilan reaksiyaga kirishib, karboksigemoglobin hosil qiladi. Oqibatda gemoglobinning to‘qimalarga kislorod tashish xususiyati keskin pasayib, gipoksiyaga, og‘ir holatlarda esa anoksiiyaga olib kelishi hamda shu tariqa inson hayotdan ko‘z yumishi mumkin. Biz yuqorida qayd etgan holatga qaytsak, ikki kun o‘tib garaj eshigi buzib ochilganida kech bo‘lgan edi.

Demak, ehtiyotkorlik juda muhim. Insonlarning isitishlik manbalaridan foydalanish qoidalarga rioya etmasligi, mavsum oldidan dudburon va mo‘rilar tashishdan o‘tkazilmasligi oqibati fojia bilan tugashi mumkin.

Fuqarolar nostandart (qo‘lbola) isitish moslamalari yoki sertifikatga ega bo‘lmagan isitish pechlari va anjomlarini xarid qilmasligi kerak. Isitish pechlarining dudburonlarini to‘g‘ri o‘rnatishi, gaz yoki boshqa muqobil yoqilg‘iga moslashtirilgan isitish pechlari hamda suyuqlirilgan uglevodorod gaz balonlari (anjomlari)ni dam olish (uxlash) xonalarga olib kirmasligi, oshxonaga o‘rnatilgan tabiiy gaz plitalarini xonalarni isitish

maqсадida ishlatmasligi, havo almashmaydigan xonalarni isitishda ochiq olov (ko‘mir va o‘tin cho‘glari)dan foydalanmasligi shart.

— Is gazidan zaharlangan fuqarolarimizning aksariyati uning oldini olish hamda ehtiyot choralaridan xabardor emasliklari ma‘lum bo‘lmoqda, — deya davom etadi D. Suvonov. — Buning uchun ommaviy axborot vositalari orqali mavzuga oid targ‘ibot ishlari yanada kuchaytirish lozim. Bunda esa o‘zaro hamkorlikda ishlash qo‘l keladi.

Tahillardan ma‘lumki, is gazidan zaharlanishning har uchtdan ikkitasi ijarada turuvchi fuqarolarning nosoz isitish pechi va noto‘g‘ri o‘rnatilgan dudburondan foydalanishlari, dudburonlarni o‘z vaqtida tekshirtirishmasligi, qo‘lbola, nostandart pechlardan foydalanish oqibatiga sodir bo‘larkan. Ta-biiyki, bu borada ijaraga beruvchining mas‘uliyatini oshirish mexanizmini ham joriy etish foydadan xoli emas.

Aholining tabiiy hamda is gazidan zaharlanishning oldini olish tadbirlari nafaqat mutasaddi tashkilot, idoralar va xizmatlar, balki har bir xonadon egasi hamda barcha fuqarolar tomonidan amalga oshirilishi zarur, — deydi “Hududgaz Navoiy” gaz ta‘minoti filiali bo‘lim boshlig‘i Jaloliddin Xudoyqulov.

— Shahar va tuman gaz ta‘minoti bo‘limlari tomonidan tegishli xizmatlari bilan hamkorlikda hovli xonadonlar, ko‘p qavatli uylarda, o‘quv muassasalarida, yotoqxona va mehribonlik uylarida, davolash profilaktika muassasalarida, kinoteatr va ko‘ngilochar maskanlarda targ‘ibot ishlari olib borilmoqda. Viloyat FVB va uning hududiy bo‘linmalari bilan hamkorlikda haftanang har chorsash kuni hamda tungi vaqtlarda reydlar o‘tkazilayapti.

Uyushtirilgan suhbatlar va uyma-uy yurib olib borilgan profilaktik tadbirlar davomida aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish bo‘yicha 26 ming 545 nafar odamga ogohlantirish xatlari berildi.

Ta’kidlash joizki, Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti bergan ma‘lumotga ko‘ra is gazidan zaharlanish oqibatidagi qurbonlar soni algogoldan zaharlanishdan keyin ikkinchi o‘rinda turadi. Aslida har ikkisidan ham saqlanishning iloji bor. Boisi zaharlanish kasallik emas, balki iste‘molchilarning shunchaki befarqligi, isitish moslamalaridan foydalanish hamda yong‘in xavfsizligi me‘yorlariga rioya etmasligi oqibatidir.

Temur ESHBOYEV
 (“Xalq so‘zi”).

Xalq so‘zi

Narodnoe slovo

MUASSISLAR:
O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi
Qonunchilik palatasi Kengashi
O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi
Senati Kengashi

Bosh muharrir O‘tkir RAHMAT

2020-yil 25-martda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro‘yxatga olingan. Nashr indeksi — 229. Buyurtma G 1141.32 572 nusxada bosildi. Hajmi — 2 taqab. Ofset usulida bosilgan. Qog‘oz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma‘lumotlarni yuktib olish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



TELEFONLAR:

Devonxona 71-259-74-51; kotibxona 71-259-74-53;
e‘lonlar 71-259-74-55.



“Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxona manzili:
Buyuk Turon ko‘chasi, 41. O‘ZA yakuni — 22.30 Topshirildi — 23.40

1 2 3 4 5 6